



TARAKKIYET TADKIQTOLARI | ИССЛЕДОВАНИЯ РАЗВИТИЯ DEVELOPMENT STUDIES

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНЛАР | НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ КОНФЕРЕНЦИИ
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCES

Volume II, Issue-18, (June) 2024

Journal homepage: <https://inashr.uz/index.php/rid>

TOSHPULATOVA Iqboloy Ibrohimjon qizi

Банк молия академияси

тингловчиси

MOLIYAVIY HISOBOTLARNING XALQARO STANDARTLARINI JORIY ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

So'nggi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotining jahon bozoriga integratsiyalashuvi jarayoni izchillik bilan amalga oshmoqda. Jahon biznesiga integratsiyalashuvning O'zbekiston amaliyoti xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga tushunarli, shaffof va ishonchli bo'lishi kerak bo'lgan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar talablari asosida taqdim etish zarurligini talab qila boshladi. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlar talablari asosida tuzilishi ma'lumotlarning aniqliligi va ishonchliligiga xizmat qilmoqda.

Ammo xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) talablari asosida tuzishda metodologik muammolar yuzaga kelmoqda. Shu boisdan xalqaro standartlarda mavjud kontseptsiyalar va printsiplarni atroflicha o'rganish maqsadga muvofiqdir. MHXS bo'yicha moliyaviy hisobotlarni ahamiyati masalalariga iqtisodchi olimlarning asarlarida keng e'tibor qaratilgan.

L.V.Gusarova qayd etishicha, MHXS bo'yicha hisobot tuzadigan kompaniya haqida axborot potensial investorning moliyalashtirish ular bilan bog'liq risklarni tushunishi va baholashi uchun yetarlidir. Shunday qilib, xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan moliyaviy hisobotlar tuzishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan foydalanish ularning moliyalashtirish manbalari uchun kurashdagi raqobatbardoshligini oshirishga imkon beradi [1].

Rossiyalik iqtisodchi olimlar A.X.Popova, V.V.Arkauti, L.E.Ikaeva ta'kidlashicha, moliyaviy hisobot xalqaro standartlari (MHXS) deganda dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy hisobot tuzishi uchun moliyaviy ko'rsatkichlar va xo'jalik operatsiyalarini ochib berish, baholash, tan olish va tasniflash umum e'tirof etilgan qoidalari yig'indisini tushunish qabul qilingan [2].

MHXS dunyoning ko'plab kompaniyalari tomonidan tashqi foydalanuvchilar uchun ishonchli bo'lgan axborotni taqdim etib, ularning iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun muhim dastak vazifasini o'taydi.

N.V.Malinovskaya MHXSning ahamiyati shundaki, bozor iqtisodiyoti sharoitida integratsiya aloqalarini rivojlantirish uchun dunyoning barcha mamlakatlarida barcha foydalanuvchi tushunishi uchun oson bo'lgan moliyaviy hisobotlar tuzish maqsadga muvofiq [3], deb ta'kidlaydi.


Umuman olganda MHXSni amaliyotga joriy qilish ham investor, ham kompaniya, ham davlat uchun ham muhim hisoblanadi. MHXSning qo'llanilishi investor uchun maqbul iqtisodiy qarorlar qabul qilish, kompaniya uchun investitsiya jalb qilish, davlat uchun xalqaro integratsiyalashuvga keng imkoniyatlar yaratadi.

Respublikamizda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida buxgalteriya hisobining milliy standartlari takomillashib bormoqda. Biroq standartlarning yangi tahririda ham muammoli jihatlarini kuzatishimiz mumkin. Masalan, "Moliyaviy hisobotning kontseptual asoslari"ning yangi tahririda moliyaviy axborotning sifat xususiyatlari 2 ta guruhga bo'lingan: asosiy va foydalilikni oshiradigan xususiyatlar.

Fikrimizcha, sifat xususiyatlarini birlamchi va ikkilamchi toifalarga ajratish maqsadga muvofiq emas. Bundan tashqari “Moliyaviy hisobotning kontseptual asoslari”ning yangi tahririda xususiy kapital va zaxiralar tushunchasi keltirilgan. Ma’lumki, xalqaro standartlarda zaxiralar joriy aktivlar tarkibida mavjud bo’lgan, 1 yildan kam xizmat qiladigan va ishlab chiqarish va xo’jalik maqsadlarida foydalaniladigan aktivlar tushuniladi.

Shu boisdan xususiy kapital va zaxiralar tushunchasini xususiy kapital va rezervlar, deb o’zgartirish maqsadga muvofiqdir. Demak, moliyaviy hisobotning yuqorida rasmda keltirib o’tilgan 8 ta tavsifi ishonchli va sifatli, shu o’rinda tashqi foydalanuvchilar uchun foydali bo’lgan axborotni shakllantirish imkokni beradi.

Moliyaviy hisobotning ishonchliligi yuqori darajani - ma’lumotlarning foydali xususiyatlarini ta’minlovchi sifat ko’rsatkichlaridan biri sifatida ko’rib chiqilishi kerak (1-rasm).



1-rasm. Moliyaviy hisobot ma’lumotlari foydaliligini ta’minlaydigan sifat tavsiflari

Mamlakatimiz iqtisodiyotining jahon bozoriga integratsiyalashuvi, xorijiy investitsiyalar uchun qulay sharoit yaratilishi buxgalteriya hisobini ham xalqaro darajada takomillashtirishga zamin yaratmoqda. Aynan xo’jalik yurituvchi sub’ektlarda buxgalteriya hisobining takomillashtirilishi va moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlar asosida tuzilishi mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan ko’plab sub’ektlar uchun jahon bozoriga chiqishida o’ziga xos vosita rolini o’tab bermoqda.

Zamonaviy dunyoda iqtisodiyotni globallashtirish jarayoni mamlakatlardan xalqaro iqtisodiy munosabatlarda faol ishtirok etishni va xalqaro standartlarga rioya qilishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini joriy etish O’zbekiston uchun o’z iqtisodiyotini rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish yo’lidagi zarur qadamdir.

Mulkchilik va tarmoq shaklidan qat'iy nazar, barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda moliyaviy hisobotlarini milliy standartlardan xalqaro standartlar asosida tuzish muhim hisoblanib, xalqaro standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarni xorijiy investorlar tomonidan tanishish imkoniyatiga ega bo'lishi va o'zining sarmoyasini kiritish bo'yicha engilliklar tug'diradi.

Hozirgi kunda deyarli barcha mamlakatlarda MHXS qo'llanilmoqda. Ushbu sohani yanada takomillashtirish maqsadida xalqaro MHXS fondi tomonidan 2019-2023 yillarga mo'ljallangan strategiya ishlab chiqildi. Unga ko'ra MHXS orqali davlat moliyasini boshqarishni kuchaytirish va global miqyosda hisob-kitoblarni qabul qilishni oshirishga quyidagi vazifalarni amalga oshirish orqali erishishimiz mumkin: (2-rasm)



2-rasm. MHXS ni takomillashtirish bo'yicha 2019-2023 yillarga mo'ljallangan strategiya. (IPSASB at a glance, 2019)

Buxgalteriya hisobi ma'lum bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt to'g'risida moliyaviy ma'lumotlarni aniqlash, qayta ishlash va moliyaviy hisobot shaklida faoliyat yurituvchi sub'ektning moliyaviy holatiga qiziquvchi foydalanuvchilarga ma'lumotni yetkazib berishni amalga oshiradigan axborot tizimdir. Buxgalteriyaning maqsadi – turli foydalanuvchilarni ma'lumotga bo'lgan ehtiyojini, ushbu ma'lumotni olish uchun eng kam sarf-xarajatlar bilan qondirishdir. O'z-o'zidan ma'lumki qarorlarni qabul qilish uchun axborot tizimdan foydalanish natijasida olinishi mumkin bo'lgan iqtisodiy naflar ushbu tizimga ketgan xarajatlardan ustun bo'lishi lozim.

Bugungi kunda jahon miqyosida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligining pasayishi, o'zaro savdo aloqalari, eksport-import faoliyatida yuzaga kelayotgan salbiy ko'rsatkichlar xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining uzluksizligini baholashda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Shu boisdan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzishda buxgalteriya hisobining asosiy printsiplariga, xususan, uzluksizlik printsipigiga qat'iy rioya qilish talab etiladi. Shu boisdan buxgalteriya hisobini yuritish va auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish jarayonida uzluksizlik printsiplarining mazmun-mohiyatini chuqur o'rganish lozim.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari butun jahonda moliyaviy hisobot standartlarining yaqinlashishida, kelishuvida va yanada yaxshilanishida muhim rol o'ynadi. Ulardan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

- ko'pchilik mamlakatlarda hisob va hisobotga qo'yiladigan milliy talablar uchun asos bo'lib xizmat qilish;
- hisob va hisobotga nisbatan o'z talablarini ishlab chiqayotgan alohida mamlakatlar uchun xalqaro etalon sifatida ishlatilishi (sanoati rivojlangan mamlakatlar bilan bir qatorda endi rivojlanib borayotgan bozorlar uchun, masalan, Xitoy, Osiyoning boshqa mamlakatlari hamda sobiq Sovet Ittifoqi mamlakatlari ham shular jumlasidandir);
- fond birjalari va tartibga soluvchi organlar tomonidan moliyaviy hisobotni Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlariga mos ravishda tuzilishini talab qilgan hollarda;
- kapital bozorlari uchun standartlar ishlab chiqishda to'lig'icha Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlariga asoslanishga qaror qilgan Yevropa Komissiyasi kabimilliy organlar tomonidan ishlatishi;
- Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talab qilinmaydigan mamlakatlarda ham kompaniyalar soni ortganligi tufayli foydalanilishi.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Гусарова Л.В. Методика трансформации финансовой отчетности некоммерческой организации в формат МХХС // Бухгалтерский учет в бюджетных и некоммерческих организациях. 2012. № 5. с. 17–30.
2. Попова А.Х., Аркаути В.В., Икаева Л.Э. Международные стандарты финансовой отчетности (МСФО): проблемы внедрения и трансформации российской отчетности // Пространство экономики. 2013. № 4–2. с. 215–218.
3. Малиновская Н.В. Новые формы бухгалтерской отчетности и их роль в сближении с требованиями МСФО // Международный бухгалтерский учет. 2011. № 32. с. 23–27.
4. Jumanov S.A. Moliyaviy hisobot axborotlarini xalqaro standartlar asosida kompilyatsiya qilish: Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) disertatsiyasi avtoreferati. T.:2019. 56-bet.
5. Jessika Hong Yang, Nada Kakabadze, Dmitro Lozovsky. International financial reporting standards (IFRS) as a change agent in Ukraine. Journal of Governance and Regulation. Volume 2, Issue 3, 2013, Continued – 1.